

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

XAYDAROV ELDORBЕК RAXIMJON O‘G‘LI

**AMARANT LERA VA YAPON SAFORASI ASOSIDA XALQ TABOBATI
UCHUN HAMDA RANG BERUVCHI TOVARLAR OLIH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41-Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии(PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Xaydarov Eldorbek Raximjon o'g'li

Amarant Lera va Yapon Saforasi asosida xalq tabobati uchun hamda rang beruvchi tovarlar olish..... 3

Хайдаров Элдорбек Рахимжон угли

Получение товаров для народной медицины и красителей на основе Amarant Lera и Японской Safora 21

Xaydarov Eldorbek Raximjon o'g'li

Get coloring products for folk medicine based on Amarant Lera and Japanese Saphora..... 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 43

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

XAYDAROV ELDORBЕК RAXIMJON O‘G‘LI

**AMARANT LERA VA YAPON SAFORASI ASOSIDA XALQ TABOBATI
UCHUN HAMDA RANG BERUVCHI TOVARLAR OLIH**

**02.00.09 -Tovarlar kimyosi
14.00.41-Xalq tabobati**

**KIMYO FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/K856 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-saxifasida (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Asqarov Ibrohim Rahmonovich
kimyo fanlari doktori, professor
Abdullayev Shavkat Vohidovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xo'jayev Vahobjon Umarovich
kimyo fanlari doktori, professor
Xusanov Umidjon Shokirjanovich
kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori.

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat universiteti huzuridagi DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024yil "23" 11 soat 10^{da}gi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 2238433.

Dissertatsiya bilan Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170100, Andijon sh., Universitet ko'ch. 129. Tel.: (99877) 223 88 30, faks : (99874) 223 84 33 e-mail: abshax@mail.ru).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "12" 11 kuni tarqatildi.
(2024 yil "12" 11 dagi 44 raqamli reyestr bayonnomasi.



Sh.M.Kirgizov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, k.f.d., professor

M.M.Mo'minjonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi, k.f.d.

M.M.Xojimatov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, k.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoda aholi sonining o'sishi va sanoat ishlab chiqarishining kengayishi tabiiy mahsulotlar asosida olingan oziq-ovqat bo'yoqlari va shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmalariga bo'lgan talabning ortishiga olib kelmoqda. Bu borada, mahalliy o'simliklarning kimyoviy tarkibini aniqlash, foydali birikmalarni ajratib olish asosida tabiiy bo'yoq va oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish borasidagi ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham, amarantning mahalliy navlari va yapon saforasi o'simliklari asosida, inson salomatli uchun foydali, zararsiz, ekologik toza tabiiy bo'yoq va oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlash, hamda tovar mahsuloti sifatida sinflash muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Jahonda sun'iy oziq-ovqat va sanoat bo'yoqlaridan foydalanish insonlar orasida turli kasalliklarning paydo bo'lishi hamda ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Bu borada, dorivor o'simliklar tarkibidan rangli va shifobaxsh birikmalarni ajratib olib, ular asosida inson salomatligi uchun zararsiz, arzon, ekologik toza, qurilish va oziq-ovqat sanoatida sintetik bo'yoqlarning o'rnini bosuvchi tabiiy bo'yoqlar va oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish, ularning xususiyatlarini zamonaviy usullar yordamida aniqlashga oid ilmiy tadqiqot ishlariga alohida ahamiyat berilmoqda. Shu boisdan, tarkibida tabiiy rangli va shifobaxsh birikmalar saqlagan amarantning mahalliy navlari, yapon saforasi va boshqa dorivor o'simliklarning tarkibini aniqlash, ular asosida tabiiy oziq-ovqat va sanoat kompozitsion bo'yoqlari, shuningdek, shifobaxsh oziq-ovqat qo'shilmalarini ishlab chiqish, tabiiy bo'yoqlar va oziq-ovqat qo'shilmalarining kimyoviy tarkibi va xususiyatlarini zamonaviy qurilmalar yordamida isbotlash muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda mahalliy iqlim sharoitlariga mos keladigan hosildor dorivor o'simliklar navlarini ishlab chiqish va ularni introduksiya qilish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlash asosida oziq-ovqat va qurilish sanoatida qo'llaniladigan bo'yoq mahsulotlari hamda oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish borasida muayyan natijalarga erishilmoqda. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida¹ "Oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish dasturini amalga oshirish" bo'yicha amalga oshirilishi muhim bo'lgan vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, mahalliy lashtirilgan dorivor o'simliklar tarkibidan rangli va shifobaxsh birikmalarni ajratib olish asosida yangi turdagi kompozitsion bo'yoq va oziq-ovqat qo'shilmalari ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibi va xususiyatlarini zamonaviy qurilmalar yordamida isbotlash, yangi mahsulotga kimyoviy tarkibi asosida TIF TN bo'yicha tegishli tovar kodlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF- 60-son «2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, shuningdek, PF-4668-son "O'zbekiston Respublikasida xalq tabobatini rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi farmoni va

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 20 maydagi PQ-251-son “Dorivor o‘simliklarni madaniy holda etishtirish va qayta ishlash hamda davolashda ulardan keng foydalanishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi hamda 2018 yil 12 oktyabrdagi PQ-3968 - son «O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII.“Kimyo texnologiyalar va nanotexnologiyalar” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Amaranthus* turkum o‘simliklarining kimyoviy tarkibi va biologik faol birikmalarining xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha xorijiy olimlar tomonidan qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, chexiyalik olimlar Z.Xmelik, M. Shneydrova, M. Vrablik, litvalik olimlar P.R. Venskutonis, P.Krauyalis, meksikalik olimlar A.P. Barba De La Rosa, L.Olvera-Martinez, germaniyalik olimlar D.Shryoder, S.Balderman, rossiyalik olimlar M.S. Gins, Yu.F.Roslyakov, N.A.Shmalko, L.K.Bochkova kabi ko‘plab xorijiy mutaxassislar tomonidan tadqiqotlar olib borilgan.

Respublikamizda ushbu tadqiqot yo‘nalishida k.f.d. I.R.Asqarov, k.f.d dots. M.M.Mo‘minjonov, k.f.d., professor M.Mo‘minov N.T.Yo‘lchiyeva, S.D.Gusakova, S.S.Bozorov va boshqa olimlar amarantning O‘zbekiston iqlim sharoitida mahalliyashtirilgan Andijon, O‘zbekiston, Ulug‘nor va Marhamat navlari tarkibiga kiruvchi ko‘plab biologik faol birikmalar mavjudligini aniqlashgan.

Bugungi kunda respublika miqyosida *Amaranthus* turkumiga mansub o‘simliklar mahalliy navlarining bargi va to‘pgullaridan bo‘yoq moddalarni ajratib olish, ularning kimyoviy tarkibi biologik faolliklarini aniqlash hamda ular asosida ozuqaviy bo‘yoq mahsulotlari yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. Shuningdek, ozuqaviy bo‘yoqlar uchun kimyoviy tarkibi asosida tashqi iqtisodiy faoliyatga tovarlar nomenklaturasi (TIF TN) bo‘yicha tegishli tovar kodlari belgilangan. Mazkur tadqiqot amarant tarkibidagi pigmentlar asosida yangi oziq-ovqat bo‘yoqlari, *Yapon saforasi* gul kurtaklaridan to‘qimachilikda qo‘llaniladigan kompozit bo‘yoqlar resepturasini yaratish, ularning kimyoviy tarkibi va biologik faolliklarini aniqlash, shuningdek, ularga TIF TN qoidalariga asosan kimyoviy tarkibi bo‘yicha yangi tovar kodlarini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish kabi muammolarni yechishga yo‘naltirilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasining “Xalq xo‘jaligi va xalq tabobatida foydalaniladigan tovarlar olish va ularni sinflash” ilmiy tadqiqot yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida kompozit bo‘yoq, oziq-ovqat qo‘shilmalari ishlab chiqish, ularning kimyoviy tarkibini aniqlash hamda TIF TN bo‘yicha sinflashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Mahalliy sharoitda yetishtirilayotgan *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida olingan maxsulotlarni shifobaxsh xossalarini kimyoviy usullar orqali aniqlash xamda ular asosida yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarini ishlab chiqish;

Amarant Lera gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida turli nisbatta tayyorlangan ekstraktlarning biologik faolligini antioksidant xossasi orqali aniqlash;

Amarant Lera gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida olinga oziq-ovqat qo‘shilmalarini mikro va makroelementlari, flavonoidlari, uchuvchan birikmalari tarkibini aniqlash;

Amarant Lera gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida kompozit bo‘yoqni tarkibi va tuzilishi fizik tadqiqot usullari yordamida aniqlash;

Amarant Lera gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida tabiiy biologik shifobaxsh choy ishlab chiqish va uchuvchan komponent tarkibini GS-MS da aniqlash;

Taklif etilayotgan yangi oziq-ovqat qo‘shilmalarini TIF TN bo‘yicha sinflash;

Tadqiqotning obyekti sifatida mahalliy *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida ishlab chiqilgan tabiiy bo‘yoq va oziq-ovqat qo‘shilmasi olingan.

Tadqiqotning predmeti *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida tayyorlanadigan, tarkibida pigmentlar saqlovchi oziq-ovqat va tekstil bo‘yoqlari ishlab chiqish, ularni kimyoviy tarkibi va biologik faolliklarini o‘rganish hamda olingan mahsulotlarga kimyoviy tarkibiga ko‘ra sinflashdan iborati.

Tadqiqotning usullari Dissertatsiya ishini bajarishda fizikaviy va kimyoviy analiz usullari: ekstraksiya, yupqa qatlamli va kolonkali xromotografiya, IQ-spektroskopiya va antioksidant faolligini aniqlash usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Mahalliy sharoitda yetishtirilayotgan *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida olingan maxsulotlarni mikro va makroelementlar tarkibi aniqlangan;

Amarant Lera gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida turli nisbatta tayyorlangan ekstraktlarning antioksidant xossasi spektrofotometrik usulda aniqlangan;

Amarant Lera gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida kompozit bo‘yoq olish usullari taklif etilgan va bo‘yog‘ni kimyoviy tuzilishi IQ , spektroskopiya usuli bilan isbotlangan.

Amarant Lera gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida olingan fito choyini uchuvchan komponent tarkibi GS-MS usulida aniqlangan.

Yangi yaratilgan “ASIXAN” nomli ozuqaviy bo‘yoq va “AS-XAYOT” nomli shifobaxsh choyini TIF TN bo‘yicha yangi tovar kod raqami ishlab chiqilgan;

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Amarant Lera gul to‘plamlari va *Yapon safora* kurtaklari asosida “ASIXAN”

nomli ozuqaviy bo‘yoq va “AS-XAYOT” shifobaxsh choyi ishlab chiqilgan;

“ASIXAN” nomli ozuqaviy bo‘yoq uchun Ts 28275514-008:2023 raqamli texnik shart va texnologik yo‘riqnoma ishlab chiqildi;

“AS-XAYOT” choyi shifobaxsh fito choyi uchun TY 203948386-01:2024 sonli texnologik yo‘riqnoma ishlab chiqildi.

“ASIXAN” ozuqaviy bo‘yog‘i uchun kimyoviy tarkibi asosida TIF TN qoidalariga binoan yangi tovar kod raqami ishlab chiqildi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi “ASIXAN” nomli ozuqaviy bo‘yoq va “AS-XAYOT” nomli shifobaxsh choy yaratilib, ularning kimyoviy tarkibi, makro va mikroelementlari hamda antioksidant “ASIXAN” ning biologik faolliklari yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan tasdiqlanganligi, olingan natijalarning nufuzli ilmiy nashrlarda chop etilganligi, amaliy natijalarini vakolatli davlat tuzilmalari faoliyatiga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon safora* kurtaklari asosida ishlab chiqilgan ozuqaviy bo‘yoq va shifobaxsh oziq-ovqat qo‘shilmalari tarkibidagi makro va mikroelementlar, efir moylari ajratib olinganligi, ularning kimyoviy tarkibi, bo‘yash va shifobaxsh xususiyatlari mass-detektorli gaz xromatografiyasi (GX-MS), IQ, YAMR spektroskopiyalar, Gaz-suyuq xromatografiya usullari yordamida aniqlashning optimal sharoitlari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon safora* kurtaklari asosida “ASIXAN” nomli kompozitsion ozuqaviy bo‘yog‘i va “AS-XAYOT” nomli tabiiy shifobaxsh fito choy ishlab chiqilganligi, hamda ularning Namangan viloyati Chortoq tumanida faoliyat olib borayotgan “BILLUR-ARKON” MChJ korxonasi ishlab chiqarilishi yo‘lga qo‘yilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida shifobaxsh fitochoy va oziq-ovqat bo‘yog‘i olish va ularni sinflash bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi asosida *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklaridan olingan oziq-ovqat bo‘yog‘i TIF TN bo‘yicha sinflanib, ularga “*Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida tayyorlangan, tarkibida flamin, rutin, kversetin, xinin kodein, efedrin, anabazin rang beruvchi birikmalar saqlagan tabiiy oziq-ovqat bo‘yoqlari” uchun - 3203 00 9001 yangi tovar kodi ishlab chiqilgan va davlat bojxona amaliyotiga joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2024 yil 20 iyundagi №17/05-24-1188-son ma‘lumotnomasi). Natijada *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida olingan oziq-ovqat bo‘yog‘ini sinflash imkonini bergan;

“AS-XAYOT” shifobaxsh fito choyi va “ASIXAN” nomli ozuqaviy bo‘yog‘ni ishlab chiqarish uchun texnologik yo‘riqnoma (TY 203948386-01:2024) va texnik shart (Ts 28275514-008:2023) ishlab chiqilgan va “ALSA GE PHARM” MChJ va “BILLUR-ARKON” MChJ korxonalarida ishlab chiqarilib, amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya vrachining 2023 yil 9 avgustdagi 318/1226-son, O‘zbekiston Respublikasi Sog‘lliqni saqlash vazirligi sanitariya-

epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 2024 yil 21 iyundagi 26-116-531-son ma‘lumotnomalari). Natijada, *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida tayyorlangan “ASIXAN” ozuqaviy bo‘yog‘i va “AS-XAYOT” oziq-ovqat qo‘shilmasini ishlab chiqarish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 5 ta xalqaro 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalarining ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, shundan 4 ta maqola respublika va 5 ta maqola xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to‘rt bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 101 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, ob‘yekti va predmetlari tavsiflangan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Amarant lera va Yapon saforasi o‘simliklarining kimyoviy tarkibi va shifobaxsh xususiyatlari, oziq-ovqat qo‘shilmalarini sinflash muammolari (adabiyotlar tahlili)*” deb nomlangan birinchi bobida dissertatsiya mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar va muammoning o‘rganilganlik darajasi batafsil tahlil qilingan. Bu borada *Amarant lera va Yapon saforasi* o‘simliklarining botanik tavsifi, tarqalish areali va tarkibiy qismlarining kimyoviy tarkibi to‘g‘risida ilmiy adabiyotlar tahlil qilingan. Shu bilan birga mamlakatimizda xalq tabobati va zamonaviy tibbiyotning o‘zaro integratsiyalashuvi to‘g‘risida ham so‘z yuritilgan. Amarantin va rutinining shifobaxsh xususiyati va ulardan tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalarini zamonaviy tibbiyot va xalq tabobatidagi ahamiyati to‘g‘risida ham ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “*Amarant lera va Yapon saforasi o‘simliklari va ular asosida tayyorlangan oziq-ovqat qo‘shilmalarining kimyoviy tarkibi va xossalarini tadqiq etish (olingan natijalar muhokamasi)*” deb nomlangan ikkinchi bobida *Amarant Lera* to‘pgullari va *Yapon saforasi* kurtaklaridan olingan “ASIXAN” ozuqaviy bo‘yog‘i va “AS-XAYOT” shifobaxsh choyining kimyoviy tarkibi, mikro-makroelementlari, ekstraktiv moddalari, flavonoidlar hamda og‘ir metallar miqdori tahlil qilingan. Antioksidant faolligini aniqlash natijalari tahlili ham ko‘rsatib o‘tilgan.

2023-yil iyul oyida Namangan viloyatining Yangi qo'rg'on tumanida *Amarant Lera* o'simligini gullash davridagi to'p guli va *Yapon saforasi* gul kurtaklari 2023-yil may oyida yig'ib olingan, quyosh tegmaydigan joyda quritilgan, maydalangan va teshik diametri 2-4 mm bo'lgan elakdan o'tkazilgan. "ASIXAN" ozuqaviy bo'yog'i namunalari tarkibining namligi (11,4%) va kul miqdorlari aniqlandi (namunalar 450-500 °C haroratda mufel pechida 3 soat davomida havo kirishi bilan kulga solingan). "AS-XAYOT" shifobaxsh choyi (kul miqdori 10%), shuningdek, namunalar tarkibiga nisbatan ekstrakt unumi (21%).

Amarant Lera gul to'plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari terilgach quyosh tegmaydigan joyda quritildi, maydalandi va suv yordamida ekstraksiya o'tkazildi. Tajribalar 1- jadvalda keltirilgan.


1-jadval

Amarant Lera va *Yapon saforasi* asosida kompozit bo'yoq olish

TN	<i>Amarant Lera</i> to'p guli Gr	Safora kurtaklari gr	Suv hajmi ml	Bo 'yoq eritmasi ml	Eritma Ph	Quruq modda gr	Umumiy quruq moddaga nisbatan %
1	50	50	1500	1000	5,4	14	0,014
2	60	40	1500	1050	5,5	12	0,011
3	70	30	1500	1250	5,5	13	0,010
4	80	20	1500	1200	5,2	11	0,009
5	90	10	1500	1300	4,5	13	0,01

Tajribalar *Amarant Lera* gul to'plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari bilan 90:10 nisbatdan 50:50 nisbatgacha o'tkazildi. Tajribalar yakunida faoligi yuqori bo'lgan 70:30 nisbatdagi aralashma tanlab olindi va distirlangan suv yordamida 60-70°C haroratda aralashtirildi va sublimasion quritildi. So'ngra ozuqaviy bo'yoq olindi. Olingan bo'yoq silikagel kolonkasida suv erituvchi sifatida ishlov berilganda uch aniq fraksiyalar olindi bu amarantin, rutin va amarantin-rutin kompozit bo'yoqdir. Bunda suvda qiyin eriydigan rutinni suvda eruvchi fizik aralashma xoliga yetkazildi. Olingan kompozit bo'yoqning IQ spektri tekshirildi (2-rasm) va umumiy xulosa qattiq rutin va amarant tutuvchi o'simliklardan dispers aralashma olish sharoiti ishlab chiqildi va rutinining biofaol holatga keltirildi. Bunga sabab rutinining amorfizatsiyalanishi va kristallining o'zgarishi bo'ldi. "ASIXAN" ozuqaviy bo'yog'ining kompozitning tarkibi Amarantin, rutin, limon kislotasidan iborat bo'lib, uning tuzilishini IQ-spektrlar asosida taxlil qilindi

. Kompozit tarkibidagi rutinda bo'lgan gidroksil-guruhi, amarantinda esa karboksil guruhi ham ko'rinmaydi. Demak, ushbu guruhlar hisobida yangi kompozit hosil bo'lgan, kompozit bundan tashqari suvda erishi rutinga qaraganda yaxshilangan, amarantin bo'yog'iga nisbatan barqarorligi oshgan chunki 2 yilda bo'yoqning rangi barqarorligi o'zgarmadi.



1-rasm. Amarantin-rutin kompozit bo‘yoqning IQ spektri

IQ-spektrida $3200-3400\text{ cm}^{-1}$ keng yutilish sohasi bu molekulararo vodorod bog‘lanishlarda qatnashgan -OH guruhga tegishli va N–H, hamda 2882 cm^{-1} sohada esa N–C–H valent tebranishlariga mos keladi. 1651 cm^{-1} sohada karboksilat ionlari C=O. 1368 cm^{-1} sohasida karboksilat ionlaridagi C–O valent tebranishlariga mos keladi Kompozit qoldiqlari halqasidagi C–O–C valent tebranishlari 1116 cm^{-1} sohasida aniqlandi. 1049 cm^{-1} sohada kompozit zanjiridagi moddalar qoldiqlari orasidagi C–O–C bog‘lari, 988 cm^{-1} sohada gidroksil guruhlari tutgan C–OH (karbinol) valent tebranishlari. 908 va 865 cm^{-1} sohalarda glikozid C–O–C deformatsion tebranishlariga mos keladi(2-rasm).

“AS-XAYOT” choyi *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtagidan tayyorlangan. Mazkur choy tarkibidan Apigenin 7-O-- β -D-glyukuronid, Luteolin 7-O-glukozid, pinitol, rutin va amarantin moddalari ajratib olindi. Ushbu birikmalarning tuzilishi IQ, YAMR spektroskopiya usullari yordamida va standart moddalar yordamida tahlil qilindi.

“AS XAYOT” choyini Etilatsetatli fraktsiyalarni YuQX bo‘yicha olingan tahlil natijalari asosida tekshirilib, 30-75 fraktsiyalar umumlashtirildi. 30-75 fraktsiyalardan tushgan cho‘kmalarni qayta kristallab, oq kristallar olindi. YuQX usulida moddaning tozaligi aniqlandi. UB xromatografik nurlantirgich UB 254/365 to‘lqin uzunliklarida nurni yutilishi kuzatilmadi. Ochiltiruvchi reagent sifatida vanilinning 93% li sulfat kislotadagi eritmasidan purkalganda va $400\text{ }^{\circ}\text{C}$ qizdirilganda pinitolga xos rangli dog‘lar hosil bo‘ldi. Suyuqlanish harorati va IK spektri tahlil qilinib, (+)-D-pinitol (5,38 gr) ekanligi tasdiqlandi. (+)-D-pinitol tarkibi $\text{C}_7\text{H}_{14}\text{O}_6$ oq yaltiroq kristall. suyuq. haror. $190-192^{\circ}\text{C}$, $[\alpha]_D +61.5$ ($c=0.27$, suv), UB sohasida yutilish bermaydi, IQ spektrida gidroksil guruhlarning yutilish zonalarini $3250-3600\text{ cm}^{-1}$, alifatik C–C bog‘lar $2300-2950\text{ cm}^{-1}$ va C–O bog‘lar 1175 cm^{-1} ni ko‘rsatib, birikmani aniqlashga imkon berdi.


Luteolin 7-O-glukozid .

Tarkibi $\text{C}_{21}\text{H}_{20}\text{O}_{11}$, $T_{\text{suyuq}} 257-258^{\circ}\text{C}$.

luteolin 7-O-glukozid birikmasining ^1H va ^{13}C YAMR spektrlari ma'lumotlari (CDCl₃ (77.16), δ , m.d., 600 MGs)

C atom	δ_s	δ_H (J/Gs)	C atom	δ_s	δ_H (J/Gs)
1	164.33		3'	145.56	
2	102.91	6.56, s	4'	149.65	
3	181.57		5'	115.76	6.86, d (8.3)
4	161.25		6'	118.61	7.32, dd (8.3, 2.3)
5	99.54	6.38, d (2.0)	1''	100.16	4.97, d (7.5)
6	162.86		2''	72.89	3.32, m
7	94.47	6.70, d (2.0)	3''	76.35	3.33, m
8	156.82		4''	69.51	3.23, m
9	105.38		5''	76.99	3.42, m
10	121.32		6''	60.73	3.54, dd (12.0, 5.7) 3.76, d (12.0)
11	113.20	7.35, d (2.3)	5-OH	-	12.87, ush. s

Bu birikma ^1H YaMR, ^{13}C YaMR, HSQC va HMBC spektrlari tahlil qilinganda Lyuteolozid (luteolin 7-O-glukozid) ekanligi aniqlandi.



2-rasm. Luteolin 7-O-glukozid

Apigenin 7-O-- β -D-glyukuronid "AS XAYOT" choyini, spirtli ekstraktining butanolli fraksiyasidan ajratilgan. Qog'oz xromatografiyasi usulida gidrolizatning qolgan qismi sof modda bilan solishtirish natijasida D-glyukuron kislota borligi aniqlandi.

"AS-XAYOT" choyi va "ASIXAN" ozuqaviy bo'yog'ini o'g'ir metallar miqdori o'rganilganda undagi kadmiy, qo'rg'oshin, mishyak, simob, DDT va uning metabolitlarining miqdori me'yoriy hujjatlardagi miqdorlardan kam ekanligi, GXSG izomerlari mavjud emasligi ko'rinib turibdi.

“ASIXAN” oziqaviy bo‘yog‘i tarkibidagi o‘g‘ir metallar, DDT va uning metabolitlarining miqdoriy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlarni ng nomi (talablar)	Ko‘rsatkichlarning (talablar)	Ahamiyati	Ko‘rsatkichlarnin g mosligi (talablar)
	Me‘yoriy hujjat bo‘yicha ko‘p emas koye/g	Amaldagi Koye/g	
Og‘ir metall tuzlari, mg/kg			
Rux	10,0	0,116	Mos keladi
Kadmiy	0,03	Yo‘q	Mos keladi
Qo‘rg‘oshin	0,05	Yo‘q	Mos keladi
Mis	5,0	0,215	Mos keladi
Simob	0,02	Yo‘q	Mos keladi
Mishyak	0,2	Yo‘q	Mos keladi
Nitrat	2000,0	30,9	Mos keladi
Xlororganik pestisidlar mg/kg			
GXSG izomerlari	0,55	Yo‘q	Mos keladi
DDT va uni metaboliti	0,11	Yo‘q	Mos keladi

“AS-XAYOT” choyi va “ASIXAN” oziqaviy bo‘yog‘ini o‘g‘ir metallar miqdori o‘rganilganda undagi kadmiy, qo‘rg‘oshin, mishyak, simob, DDT va uning metabolitlarining miqdori me‘yoriy hujjatlardagi miqdorlardan kam ekanligi, GXSG izomerlari mavjud emasligi ko‘rinib turibdi.

Bu esa mazkur oziq-ovqat qo‘shilmasi og‘ir metallarning miqdoriy ko‘rsatkichlari jihatidan ham inson organizmi uchun bezarar ekanligini bildiradi. Shuningdek, “ASIXAN” oziqaviy bo‘yog‘i tarkibidagi og‘ir metallarning miqdorlari ham o‘rganildi. Quyida keltirilgan 3-jadvalda “ASIXAN” oziqaviy bo‘yog‘i tarkibidagi kadmiy, simob, DDT va uning metabolitlarining miqdoriy ko‘rsatkichlari keltirilgan.

“ASIXAN” oziqaviy bo‘yog‘i va “AS-XAYOT” choyi tarkibi mikroblarga nisbatan faolligi o‘rganilganda Patogen v.t.ch salmonella V. Cereus Pleseni mikroblariga nisbatan faolik aniqlanmadi. (4-jadval)

O‘simlik kulining makro va mikroelementlarining tarkibi yuqori samarali energiya dispersiv yordamida aniqlandi. Rentgen-fluoresan spektrometrik qurilma (Polarizatsiya kiritilgan Yaponiya Rigaku NEX CG EDXRF analizatori - 9022 19 000 0).

“AS-XAYOT” shifobaxsh fito choyi tarkibida 25 ta kimyoviy element mavjudligini keltirilgan. Olingan natijalar 5-jadvalda keltirilgan (4 va 5-rasm).

4-jadval va 3-rasmdan ko‘rinib turibdiki, elementlardan yasalgan qutb (K, Si, Ca, Cl, S, Mg, P) tarkibida makromiqdorlarda mavjud bo‘lib, kaliy, kremniy va kaltsiyning tarkibi boshqa makroelementlar tarkibiga qaraganda kattaroq yoki undan yuqoriroqdir.

“ASIXAN” ozuqaviy bo‘yog‘i va “AS-XAYOT” fito choy tarkibi
mikroblarga nisbatan faolligi


Ko‘rsatkichlarning nomi (talablar)	Ko‘rsatkichlar	Ahamiyati
	Me‘yoriy hujjat bo‘yicha ko‘p emas koye/g	Amaldagi Koye/g
Mafanm	5x10 ² koye/g	2,3x10 ² koye/g
BGKP	0,01	Aniqlanmadi
Patogen v.t.ch salmonella	25,0	Topilmadi
V. Cereus	1x10 ³ koye/g	Aniqlanmadi
Pleseni	5x10 ² koye/g	Aniqlanmadi

Ko‘rinib turibdiki, bu kompozitsiya Fe, Sr, Zn, Mn, Br, Rb kabi mikroelementlarning to‘planishi (ularning tarkibining kamayishi tartibida) bilan tavsiflanadi. Ultramikroelementlar (Ti, Ni, Cr, V, Ag) tabiiy xususiyatlarni yoki antropogen muhit omillarining ta'sirini aks ettiradi.


“AS-XAYOT” fito choyi va “ASIXAN” ozuqaviy bo‘yog‘ining
makro- va mikroelement tarkibi

N	Quruq “AS XAYOT” choyining elementar tarkibi	Massa %	“ASIXAN” ozuqaviy bo‘yog‘ining elementar tarkibi	Massa %
1	Cl	0,332	Cl	5,41
2	Br	0,0016	Br	0,0017
3	Mg *	0,456	Mg *	3,21
4	Si **	2,60	Si **	4,68
5	P *	0,355	P *	3,47
6	S	0,785	S	1,92
7	K *	3,92	K *	24,7
8	Ca *	1,78	Ca *	6,60
9	Ti **	0,0487	Ti **	0,0861
10	V	(0,0009)	V	0,008
11	Cr *	0,0010	Cr *	0,0040
12	Mn *	0,0069	Mn *	0,0411
13	Fe	0,240	Fe	1,06
14	Ni	0,0013	Ni	0,0076
15	Cu	0,0051	Cu	0,0228
16	Zn	0,0077	Zn	0,267
17	Rb	0,0011	Rb	0,00771
18	sr **	0,0085	sr **	0,0349
19	Zr *	0,0571	Zr *	0,128
20	Ag	0,0004	Ag	0,0009
21	Te	(0,0005)	Te	-
22	Ta	0,0014	Ta	0,0065
23	Os	(0,0005)	Os	-
24	Pb	0,0007	Pb	0,042
25	Dy	(0,0037)	Dy	1,74

* - hayotiy elementlar; ** - shartli muhim elementlar



3-rasm. As-xayot choynining elementar tarkibi spektri



4-rasm. "AS-XAYOT" choynining elementar tarkibi spektri

"AS-XAYOT" choyi tarkibidan 7 tasi hayotiy, 3 tasi shartli elementlar mavjud ekan. Ko'rinib turibdiki, "AS-XAYOT" choyi elementlarning quyidagi ketma-ketlikda to'planishi bilan tavsiflanadi.

1. "AS- XAYOT" fito choyi:

K>Si>Ca>S>Mg>P>Cl>Fe>Zr>Ti>Sr>Zn>Mn>Cu>Dy>Br>Ta>Ni>Rb>Cr>V>Pb>Te=Os>Ag (ularning mazmunining kamayishi tartibida).

2. "ASIXAN" ozuqaviy bo'yog'i:

K>Ca>Cl>Si>P>Mg>S>Dy>Fe>Zn>Zr>Ti>Pb>Mn>Sr>Cu>V>Rb>Ni>Ta>Cr>Br>Te=Os>Ag (ularning mazmunining kamayishi tartibida).

"AS-XAYOT" choyi va "ASIXAN" ozuqaviy bo'yog'ining oksidlarining miqdori ham aniqlandi. Olingan natijalar 6- jadvalda keltirilgan.

“AS-XAYOT” fito choyi va “ASIXAN” ozuqaviy bo‘yog‘ining oksid tarkibi

N	“AS-XAYOT” choyi	Massa %	“ASIXAN” ozuqaviy bo‘yog‘i	Massa %
1	Ta ₂ O ₅	(0,0078)	Ag ₂ O	0,0 009
2	PbO	0,0045	SnO ₂	0,0013
3	MgO	0,763	MgO	5.23
4	SiO ₂	5.61	Al ₂ O ₃	3.22
5	P ₂ O ₅	0,821	SiO ₂	9.83
6	SO ₃	1.98	P ₂ O ₅	7.82
7	K ₂ O	4.76	SO ₃	4.70
8	CaO	2.51	K ₂ O	29, 2
9	TiO ₂	0,0817	CaO	9.07
10	V ₂ O ₅	(0,0017)	TiO ₂	0,141
11	Cr ₂ O ₃	0,0014	V ₂ O ₅	(0,0028)
12	MnO	0,0089	Cr ₂ O ₃	0,0 057
13	Fe ₂ O ₃	0,345	MnO	0,0521
14	NiO	0,0016	Fe ₂ O ₃	1,48
15	CuO	0,0064	Co ₂ O ₃	(0,0073)
16	ZnO	0,0097	NiO	0,0094
17	Rb ₂ O	0,0012	CuO	0,0281
18	SrO	0,0102	ZnO	0,326
19	ZrO ₂	0,0776	As ₂ O ₃	0,0012
20	Ag ₂ O	0,0004	Rb ₂ O	0,00 76
21	TeO ₂	(0,0007)	SrO	0,0406
22	Ta ₂ O ₅	0,0018	Y ₂ O ₃	0,0014
23	OsO ₄	(0,0008)	ZrO ₂	0,170
24	PbO	0,0009	Ag ₂ O	0,0009
25	Dy ₂ O ₃	(0,0042)	SnO ₂	0,0013

Jadvallardan ko‘rinib turibdiki, “AS-XAYOT” choyi va “ASIXAN” ozuqaviy bo‘yog‘ini tarkibining quyidagi ketma-ketlikda to‘planishi bilan tavsiflanadi.

1. “AS-XAYOT” choyi tarkibining oksidi tarkibi

SiO₂>K₂O>CaO>SO₃>P₂O₅>MgO>Fe₂O₃>TiO₂>ZrO₂>SrO>ZnO>MnO>


CuO>Dy₂O₃>Ta₂O₅>V₂O₅>Cr₂O₃>Rb₂O>OsO₄>TeO₂>Ag₂O

(ularning tarkibining kamayish tartibida).


2. “ASIXAN” ozuqaviy bo‘yog‘ini oksidli tarkibi

K₂O>SiO₂>CaO>P₂O₅>MgO>SO₃>Al₂O₃>Fe₂O₃>ZnO>ZrO₂>TiO₂>MnO>SrO>

$\text{Eu}_2\text{O}_3 > \text{CuO} > \text{NiO} > \text{Ta}_2\text{O}_5 > \text{Rb}_2\text{O} > \text{Co}_2\text{O}_3 > \text{SnO}_2 > \text{As}_2\text{O}_3 > \text{Ag}_2\text{O}$ (tarkibining kamayish tartibida).



5 - rasm. “As-Xayot” choyi tarkibining oksidi tarkibi spektri




6-rasm “ASIXAN” ozuqaviy bo‘yog‘ini oksidli tarkibi spektri

Oziq-ovqat tarkibdagi mineral moddalar tarkibini o‘rganish natijasida kaliy, kremniy, kaltsiy, xlor, olingugurt, magniy, fosfor va temirning tarkibida sezilarli biz taklif qilayotgan biologik oziq moddalar tarkibida miqdor jihatdan ko‘pligi aniqlandi.

Namangan viloyatida o‘sadigan *Amaran Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida tayyorlangan “AS-XAYOT” choyining uchuvchan komponentli birikmalari gidrodistillyasiya usulida olindi, qurituvchilar yordamida quritildi hamda efir moyi tarkibi Agilent 5977A mass-selektiv detektorli (Agilent

Technologies) VF-Wax CP 9205 kolonkada (100% polietilenglikol, 30 m × 0,25 mm, plenka qalinligi 0,25 mkm, Agilent Technologies, Niderlandiya) Agilent 7890B gaz suyuqlik xromatografiyasidan foydalanilgan holda tahlil qilindi.



7-rasm. “AS-XAYOT” choyining GX-MS

Olingan natijalar gaz xromato-mass-spektrometr ma’lumotlar kutubxonasi, Wiley Registry of Mass Spectral Data (9-chi nashr), NIST Mass Spectral Library (2011) ma’lumotlar bazasi hamda kataloglardan foydalangan holda tahlil qilindi.

7-jadval

“As- Xayot” choyining tarkibidagi moddalar miqdorining qiyosiy tahlili.

Modda	Miqdor, %	Modda	Miqdor, %
Piridin	0,09	β -Bourbonene	1,2
D-Limonen	15,4	trans-Dihydrocarvone	2,8
1,8-Cineol	6,4	Caryophyllene	1,2
Terpinen	7,7	cis-Dihydrocarvone	1,4
3-Oktanon	0,4	Pinocarveol	1,4
m-Cimen	5,7	γ -Muurolene	0,9
β -Mirsen	2,8	α -Terpineol	0,5
ϵ -3-geksenol	1	Dihydrocarvyl acetate	3,2
Furfural	1,8	Germacrene D	1,8
1-Okten-3-ol	1,2	β -Bourbonene	2,6
Benzaldegid	0,5		

Biz tomonimizdan “AS-XAYOT” choyining tarkibidagi inson organizmi uchun foydali bo’lgan tabiiy kimyoviy birikmalar ajratib olindi va qiyosiy taqqoslandi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan.(7-jadval).

Yuqorida keltirilgan 7-jadval va 8-rasmdagi ma’lumotlar tarkibida uchuvchan komponentlardan γ -Muurolene (0,9%), Furfural (1,8%), D-Limonen (15,4%), 1,8-Cineol (6,4%), m-Cimen (7,7%) birikmalari mavjud ekanligini ko‘rish mumkin (8-rasm).

Shifobaxsh choy tarkibidagi monoterpen, diterpen, getrosiklik aldegidlar, uglevodorodlar barchasi inson salomatligi uchun kompleks ta'siri yuqori.

Shuningdek, ushbu ma'lumotlar Shifobaxsh choy tarkibida inson organizmi uchun foydali bo'lgan birikmalarning ko'pligini, zamonaviy tibbiyot va xalq tabobatida keng foydalanish mumkinligini tasdiqlaydi.

Tadqiqotlar davomida Amarant lera o'simligi gul to'plamlari va Yapon saforasi gul kurtaklari asosida yaratilgan tabiiy "ASIXAN" oziq-ovqat bo'yog'i tovar sifatida sinflanib, ularga tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi bo'yicha quyidagicha: "Yapon saforasi gul kurtaklari va amarant lera o'simliklari asosida tayyolangan, flaming, rutin, kversitin, xinin, anabazin rang beruvchi birikmalar saqlagan tabiiy oziq ovqat bo'yoqlari " uchun 3203 00 900 1, yangi tovar kod raqami tavsiya etilgan. Taklif etilayotgan TIF TN kod raqamlari 8-jadvalda keltirilgan.

8-jadval

“ASIXAN” ozuqaviy bo‘yoq uchun taklif etilayotgan TIF TN kod raqami

Amaldagi		Taklif etilgan	
121299	Boshqalar		
3203 00	O'simlik yoki hayvonlardan tayyorlanadigan bo'yovchi birikmalar (bo'yovchi ekstraktlar)		
3203 00 100 0	o'simliklardan olinadigan bo'yovchi moddalar va ular asosidagi preparatlar uchun	3203 00 900 1	Amarant o'simligi ekstrakti asosida tayyorlangan, amaranthusin birikmasi saqlagan qizil rangli oziq-ovqat bo'yog'i

Oziq-ovqat qo'shilmamiz, tarkibida inson salomatligi uchun foydali bo'lgan organizmi immunitetini mustahkamlash, tanadagi qon aylanishini yaxshilash kabi xususiyatlarni namoyon qiluvchi tabiiy birikmalar borligi aniqlangan. Shirinlikar va ichimlik suvlari tarkibiga qo'shish bilan organizm immunitetni oshirish maqsadida amalyotga joriy ettilgan.

Dissertatsiyaning “Yapon saforasi va Amarant lera o'simliklarini biologik faoligini o'rganish va ular asosida biologik faol oziq ovqat va konditr mahsulotlarini olish va ularning xususiyatlarini o'rganish” deb nomlangan 3-bobida biologik faol oziq- ovqat qo'shilmalarini olish va ularni xususiyatlari tekshirish isbotlandi.

XULOSA

“Amarant lera va yapon saforasi asosida xalq tabobati uchun hamda rang beruvchi tovarlar olish” mavzusidagi dissertatsiya bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Adabiyotlar tahlili natijasida *Amarant Lera* va *Yapon safora* o‘simliklari o‘zlarining spesifik faolligini belgilovchi biologik faol moddalar majmui, flavonoidlar va hayotiy zarur makro va mikroelementlardan iboratligi aniqlandi.
2. Turli massa nisbatdagi *Amarant Lera* va *Yapon safora* o‘simliklari aralashmasining antioksidant faolligini o‘rganish natijasida, ushbu o‘simliklarning eng yuqori biologik faollik namoyon qiluvchi optimal massa nisbati aniqlandi.
3. *Amarant Lera* va *Yapon safora* o‘simliklari asosida “AS-XAYOT” nomli yangi shifobaxsh, tabiiy fitochoyi ishlab chiqildi hamda uning kimyoviy tarkibi zamonaviy tadqiqot usullari yordamida aniqlandi.
4. *Amarant Lera* gul to‘plamlari va *Yapon saforasi* gul kurtaklari asosida “ASIXAN” nomli tabiiy kompozit bo‘yoq olish usullari taklif etildi, hamda olingan yangi kompozit bo‘yoqning kimyoviy tarkibi va xususiyatlari zamonaviy tadqiqot usullari yordamida aniqlandi.
5. “ASIXAN” kompozit bo‘yog‘i va “AS-XAYOT” fitochoyining mikrobiologik, toksikologik va o‘tkir zaharlilik darajasi, pestitsidlar va og‘ir metallar miqdori aniqlanish natijalari, ularning San QM №0366-19 da keltirilgan talablarga muvofiqligini va sog‘liq uchun havfli emasligini ko‘rsatdi.
6. “ASIXAN” oзуqaviy bo‘yog‘i tarkibidan amarantin pigmenti, rutin flavanoidi va kompozit birikma ajratib olinib, ularning tarkibi, tuzilishi va antioksidantlik xossalari fizik-kimyoviy hamda kvant kimyoviy tahlillar yordamida aniqlandi.
7. “ASIXAN” oзуqaviy bo‘yog‘i va “AS-XAYOT” shifobaxsh fitochoyini ishlab chiqarish uchun texnologik yo‘riqnoma (TY 203948386-01:2024), texnik shart (TS 28275514-008:2023) ishlab chiqildi, hamda Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi tashkiloti tomonidan gigiyenik xulosa (№452780) olindi.
8. “ASIXAN” oзуqaviy bo‘yog‘i va “AS-XAYOT” shifobaxsh fitochoyi tashqi iqtisodiy faoliyat tovarlar nomenklaturasi asosida sinflanib, ularga 3203 00 9001 yangi tovar kodi ishlab chiqildi hamda davlat bojxona amaliyotiga joriy qilindi. (O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining 2024 yil 20 iyundagi №17/05-24-1188-son ma’lumotnomasi).

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПРИ АНДИЖАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
УНИВЕРСИТЕТЕ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНОЙ СТЕПЕНИ
№ DSc.03/29.10.2021.К/Т.60.05**

АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАЙДАРОВ ЭЛДОРБЕК РАХИМЖОН УГЛИ

**ПОЛУЧЕНИЕ ТОВАРОВ ДЛЯ НАРОДНОЙ МЕДИЦИНЫ И
КРАСИТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ АМАРАНТ LERA И ЯПОНСКОЙ
СОФОРЫ .**

**02.00.09 - Химия товаров
14.00.41- Народная медицина**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии по ХИМИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Андижан – 2024

Тема докторской диссертации зарегистрирована под номером B2024.4.PhD/K856 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном университете.

(Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Ученого совета (www.fdu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.fdu.uz). ziyonet.uz).

Научные руководители:

Аскарар Иброхим Рахмонович
доктор химических наук, профессор
Абдуллаев Шавкат Вохидович,
доктор химических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Хужаев Вахобжон Умарович
доктор химических наук, профессор
Хусанов Умиджон Шокиржанович
Доктор философии по химическим наукам

Ведущая организация:

Ферганский государственный университет

Защита диссертации состоится на заседании Ученого совета под номером DSc.03/29.10.2021.K/T.60.05 в Андижанском государственном университете «23» 11 2024 года. (Адрес: 170100, г.Андижан, ул. Университетская, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33)

С диссертацией можно ознакомиться в Центре информационных ресурсов Андижанского государственного университета (зарегистрирован под номером _____). (Адрес: 170100, Андижанский район, ул. Университета, 129. Тел.: (99877) 223 88 30, факс: (99874) 223 84 33, электронная почта: agsu_info@edu.uz).

Автореферат диссертации роздан «12» 11 2024 года.
(Отчет реестра под номером 44 от 11 «12» 2024 года.)



Ш.М.Киргизов
Преседатель Научного совета
по присуждению научных степеней
д.х.н., профессор
М.М.Муминжонов
Научного секретаря Научного совета
по присуждению научных степеней,
д.х.н., профессор
М.М.Хожиматов
Преседатель научного семинара Научного
совета по присуждению научных степеней
д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Рост населения Земли и расширение промышленного производства приводят к увеличению спроса на пищевые красители и лекарственные пищевые добавки на основе натуральных продуктов. В связи с этим особое внимание уделяется научным исследованиям по разработке натуральных красителей и пищевых добавок на основе определения химического состава местных растений, извлечения полезных соединений. Поэтому актуальна разработка полезных для здоровья человека, безвредных, экологически чистых натуральных красителей и пищевых добавок на основе местных сортов растений амаранта и японской софоры, определение их химического состава и отнесение их к товарным продуктам имеет практическое значение.

Использование искусственных пищевых и промышленных красителей в мире вызывает возникновение и рост различных заболеваний среди людей. В связи с этим особое значение имеет выделение красящих и целебных соединений из состава лекарственных растений, получение на их основе безвредные для здоровья человека, недорогие, экологически чистые, натуральные красители и пищевые добавки, заменяющие синтетические красители в строительной и пищевой промышленности, также особое значение придается научно-исследовательским работам, связанным с определением их характеристик современными методами анализа. Поэтому определение состава местных сортов амаранта, японской софоры и других лекарственных растений, содержащих природные красители и лекарственные соединения, разработка натуральных пищевых и промышленных комплексных красителей, а также лекарственных пищевых добавок на их основе и доказать химический состав и свойства натуральных красителей и пищевых добавок с помощью современных приборов имеет преимущественные значения.

В нашей республике достигаются определенные результаты по созданию сортов продуктивных лекарственных растений, пригодных к местным климатическим условиям, и их внедрению на основе определения химического состава при разработке лакокрасочной продукции и пищевых добавок, используемых в пищевых и строительных отраслях. В стратегии развития нового Узбекистана определены задачи, которые важно реализовать в рамках «Реализации Программы развития пищевой промышленности»². На основе этих задач ведется разработка новых видов композиционных красителей и пищевых добавок на основе извлечения цветных и лекарственных соединений из состава локализованных лекарственных растений, доказательство их химического состава и свойств с помощью современных приборов, определение химического состава новой продукция. Разработка и внедрение соответствующих товарных кодов по ТНВ ЭД имеет важное научное и практическое значение.

Данное диссертационное исследование послужит в определенной степени

² Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УК-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

реализацией постановления Указ Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года №УК-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», а также №УП-4668 « О дополнительных мерах по развитию народной медицины в Республике Узбекистан» Президента Республики Узбекистан № ПП-251 от 20 мая 2022 года и ПП-3968 от 12 октября 2018 года «О мерах по регулированию сферы народной медицины в Республике Узбекистан».

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологии республики. Данные исследования проводились в соответствии с VII приоритетным направлением развития науки и технологий республики «Химические технологии и нанотехнологии».

Степень изученности проблемы. Со стороны зарубежных учёных проведён ряд исследований по изучению химического состава и свойств биологически активных соединений растений рода *Amaranthus*. В частности, соответствующие исследования проводили многие такие зарубежные специалисты, как чешские учёные З.Хмелик, М.Шнейдерлова, М.Враблик, литовские учёные П.Р.Венскутонис, П.Крауялис, мексиканские учёные А.П. Барба де Ла Роса, Л.Ольвера-Мартинес, немецкие учёные Д. Шрёйдер, С.Балдерман и российские учёные М.С.Гинс, Ю.Ф.Росляков, Н.А.Шмалько, Л. К. Бочкова.

В нашей республике в данной исследовательской области такие учёные, как д.х.н, профессор И.Р.Асқаров, д.х.н. доц. М.М.Мўминжонов, д.х.н, профессор М.Мўминов, Н.Т. Йўлчиева, С. Д. Гусакова, С. С. Бозоров и другие, установили наличие множества биологически активных соединений в некоторых сортах амаранта, таких как Андижан, Узбекистан, Улугнор и Мархамат, в условиях климата нашей страны.

